

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
TILLARNI O'RGANISH KAFEDRASI



«Nomutaxassis tinglovchi va talabalarga chet tilni o'qitishning samarali metodikalari»

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari
to'plami



Toshkent, 2024-yil 9-aprel



Редактировать в WPS Office

KBK

T-

“Nomutaxassis tinglovchi va talabalarga chet tilini o`qitishning samarali metodikalari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi yuzasidan to`plam. – Toshkent: Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024. – B.197.

Taqrizchilar:

Nargiza SHirinova– O`zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni O`Rganish” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

X.B.Samigova – O`zbekiston Davlat jahon tillari universiteti “Ingliz tili tarlimi nazariyasi” kafedrasida professori, filologiya fanlari doktori.

Muharrirlar: Tillarni or`ganish kafedrasida o`qituvchilari: O.J.Latipov, Nilyufar Shirinova, G.M.Egamberdiyeva, N.N.Radjabov.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O`zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to`g`risida” PQ-5117-sonli Qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 312-son qarori ijrosi sifatida 2024-yil 9-aprel kuni “Nomutaxassis tinglovchi va talabalarga chet tilini o`qitishning samarali metodikalari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi yuzasidan to`plam tuzildi.

Mazkur to`plam nomutaxassis tinglovchi va talabalarga chet tilini o`qitishning samarali metodikalariga bag`ishlangan bo`lib, unda chet tilini o`qitishning turli metodikalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. To`plamda chet tilini o`qitish bo`yicha respublikamizda qizg`in ijodiy faoliyat olib borayotgan metodist-olimlarning qimmatli fikrlari va tavsiyalari tinglandi, nofilologik yo`nalishda tahsil olayotgan tinglovchi va talabalarni o`qitish chog`ida vujudga kelayotgan turli vaziyat va muammolarning yechimi borasida fikr almashilgan va shu kabi masalalarga bag`ishlangan maqola va tezislarni jamlangan.

Konferensiya materiallari tilshunoslar, yosh tadqiqotchilar, kursantlar hamda chet tilini o`qitish va o`rganishga befarq bo`lmagan kishilar uchun foydali bo`ladi deb umid qilamiz.

To`plamga kiritilgan maqola va tezislarning mazmuniga mualliflar javobgar.



О СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДАХ ПРИ УСВОЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация. Данная статья посвящена раскрытию особенностей обучения иностранных языков, трудностей их изучения курсантами, а также методов преодоления языковых барьеров. Эффективность данного процесса может быть обеспечен за счет внедрения в практику преподавания русского языка интенсивных, инновационных методов обучения.

Ключевые слова: РКИ, интенсивные методы обучения, система образования, инновационные технологии.

Мы живем в информационном виртуальном мире в полилингвальных условиях, когда народы стали еще ближе. Познавательная информация доходит до нас в считанные секунды. Такого размаха цивилизации мир еще не видал. Социальные сети переполнены всякой (нужной и ненужной) информации. Каждый человек желает быть осведомлен последними новостями, происходящими в мире. Мы должны выбрать необходимый для нас контент сведений, которая заключается в поиске и подборе учебных материалов, словарей, комплекс упражнений, заданий, тестов, кейсов, текстов и других занимательных программ, нацеленных на интенсивное обучение иностранным языкам. Для того, чтобы не запутаться в материалах социальных сетей, необходимо владеть иностранными языками. Вследствие их не знания пользователь социальных сетей может натолкнуться на серьёзные проблемы, посетив не только бесполезные, но и «вредные» интернет-сайты.

Неслучайно в последние годы в нашей стране изучению иностранных языков уделяется особое внимание. Функционируют институты, учебные центры по обучению иностранных языков



конференции «Миллий гвардия ҳарбий хизматчиларининг муомала маданиятини такомиллаштириш, унинг назарий ва амалий жиҳатлари». Т., 2021. – С. 75-78.

3. Мухачева, А.М. Интенсивный метод обучения русскому языку как иностранному//Молодой ученый. – 2010. - №6 (17). – С. 215-220.

Matnazarova X.

UrDU Xorijiy filologiya fakulteti Roman-german filologiyasi kafedrası
doktoranti

xayrinisomatnazarova@gmail.com

DISKURS TILSHUNOSLIGIDA TENORNING STATUS, MUNOSABAT VA TA’SIR KABI TURLARGA BO’LINISHINING TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy diskurs tilshunosligidagi tenorning status, munosabat va ta’sir kabi bo’linishlarini ko’rib chiqigan. Olimlarning diskurs tenori haqida fikr mulohazalari haqida ma’lumot berilib, ilmiy asoslangan. U.Shekspirning “Qish ertagi” komediyasining diskurs bo’linishiga ko’ra diskursiv tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: diskurs, tenor, status, munosabat, ta’sir, komediya, teng ,teng bo’lmagan, ijobiy, salbiy.

Diskurs masalasi kognitiv tilshunoslik va pragmatika yo’nalishining asosiy muhokamalaridan biridir. Shu sababli bu sohada jahon tilshunoslari ko’p izlanishlar olib borishgan. Bu tilshunoslikning yangi sohasi o’zbek tilshunoslarini ham qiziqtirib, o’zlarining ilmiy-amaliy izlanishlarini olib borishmoqda. Masalan, jahon tilshunoslaridan J.J.Gumpers, V.N.Voloshinov, J.R.Trillo, V.V.Vinogradov, I.R. Galperin, T.A.N.Deyk, Dj.Ostin, X.Grays, Dj.Syorl, Ch.Morris, Ch.Pirs, J.May, N.Arutyunova, S.Karl, M.Grigory diskursni bir nechta darajada ko’rib chiqishni va keng



ma'noda diskursga kompleksli kommunikativ voqea, tor ma'noda esa kommunikativ harakatning yozma yoki nutqiy verbal mahsuloti sifatida qarash lozimligi haqida fikr bildiradi. O'zbek tilshunoslaridan A.Pardayev, N.Mahmudov, M.Irisqulov, A.Hojiev, Sh.Safarov, B.Ashurova, Z.Yo'ldoshev, kabi olimlar ham pragmatik tilshunoslikda diskurs va uning tutgan o'rni haqida o'z ilmiy ishlarida asoslab berishgan.[1]


Tenor-bu diskursda suhbat ishtirokchilari va ularning munosabatlarini anglatadi. Diskurs tenori bu ishtirokchilar orasida ijtimoiy munosabatlarning bahs mushodasi jarayonidagi bajaradigan rollarini o'rganadi.[2] Inson umri davomida turli xil rollarni bajaradi. Suhbat jarayonida ishtirokchilarning bir -biri bilan munosabatini, ularning yaqinlik darajasini, statusini, munosabatlarning rasmiy yoki norasmiylikini, asosan, tenor orqali aniqlanadi. Bundan tashqari tenor kim ishtirok etayotganligini, ishtirokchilarning tabiatini, ularning maqom va rollarini, ishtirokchilar o'rtasidagi qanday turdagi rol munosabatlari, masalan bemor va shifokor, sotuvchi yoki haridor o'rtasidagi munosabatlarini o'rganadi. Masalan, bir inson umri davomida o'nlab rollarni bajaradi. Advokat-bu sud idorasining hodimi va shu bilan birga, rahbar, ota, o'g'il, ustoz, shaxmatchi va shu kabi rollarni butun umri davomida bajaradi.

Tenor ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni semiotikasi bilan shug'ullanadi, va munosabatlar o'rtasidagi quyidagi uchta status, munosabat va ta'sir jihatdan bog'lab turadi.[3] Diskurs tenori nutq yaratilishida bir-biriga aloqador bo'lgan rollarni yoki aktyorlarni belgilab beradi. Bu suhbatda qatnashayotgan ishtirokchilarni ijtimoiy munosabatlariga aloqador bo'ladi. D.Batt tenorni agentlik yoki ijtimoiy rol, status va masofa kabi omilga ajratgan.[4] Uning fikriga ko'ra, status teng va iyerarxik bo'ladi. U adresant tomonidan tanlangan munosabatni anglatadi. Bu o'rinda D.Batt va M.Hallidey[5]larning ajratgan omillari bir biriga o'xshash, ammo yuqorida berilgan Fitriatuddiniyah va Brown va Gilman(1960-72), Poynton (1985) va Ejjinslar(1994) uchta asosiy omilni



aytib o'tishgan. Bular *Power*-Hokimlik, *Affective involvement*-Emotsional zaruriyat va *Contact*-Munosabat kabi turlarga bo'lingan. Bu olimlar va Fitriatuddiniyahning asosan bir-biriga o'xshash. Power yani Hokimlik Fitriatuddiniyahda status bilan berilgan.





Yuqoridagi diagrammaning birinchi **status** turidan ko'rishimiz mumkinki, statusning ishtirokchilarning ijtimoiy o'rniga ko'ra **teng** va **teng bo'lmagan** turlarga bo'lingan. **Status** madaniyatning ijtimoiy iyerarxiyasida suhbatdoshning qarindoshlik o'rnini anglatadi. Bu insonlarning biz yuqarida ta'kidlagan adresant rollarini teng yoki teng bo'lmagan ekanligini tushunamiz. Masalan, rahbar va xodimlar, o'qituvchi va talabalar, viloyat hokimi va fuqarolar o'rtasida teng bo'lmagan statuslarni aniqlanadi. Ammo rahbarlarning yoki o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarida teng status bo'ladi. **Teng status** egasi hukmron vazifasini bajaradi, ijtimoiy statusidan kelib chiqib, ular tabiatan, tashabbuskor bo'ladi va ayni damda teng bo'lmagan status egalarini nazorat qiladi. Keyingi ular orasida **munosabat**, bu **yaqin** yoki **uzoq munosabat**da ekanligini ko'rsatib beradi. Uchinchi turi adresant va adresantning bir-biri bilan **do'stona** yoki **nomaqbul** ta'siri bo'lib, unda suhbat jarayoni **ijobiy** yoki **salbiy** yakun topadi. Biz tadqiq qilayotgan U. Shekspirning "Qish ertagi" komediyani tahlil qiladigan bo'lsak, undagi dialoglar orqali diskurs tenorining yuqoridagi bo'linishini kuzatamiz. Ushbu tragedik komediya Sitsiliya qirol Leontning ayoli, Sitsiliya qirolichasi



Germiyonani xiyonatda ayblashi haqida bo'lib, do'sti ya'ni Bogemiya qirol Poliksen bilan Germiyonaga nisbatan nohaq ayblov butun asarning syujetini qamrab oladi. To'rtinchi parda birinchi sahnasi Bogemiya qirol Poliksenning nutqi bilan boshlanadi. Quyidagi U.Shekspirning "Qish ertagi" komediyasidan berilgan Poliksenni nutqida diskurs tenorini tahlil qilingan:

Poliksen

Azizim Kamillo, sendan o'tinib so'rayman, ha deb qistayverma. Yo'q deyish shunchalar og'irki, xuddi bemorga aylanaman qolaman. Xo'p deyish, sendan ayrilib qolish esa menga naq o'lim bilan barobar.[6]

Ushbu Poliksenning nutqida statusi jihatidan teng bo'lmagan shaxslar, yurt qirol va vaziri o'rtasida bo'lib, ijtimoiy kelib chiqishi bir-biridan farq qilmasada, tenorning ikkinchi bo'linishiga ko'ra, ularning munosabati yaqin munosabat turiga kiradi. Uchinchi ta'sir bo'linishiga ko'ra, ular o'rtasida ijobiy ta'sir kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, diskurs tenorida uchta asosiy omil muhim hisoblanib, u suhbatning qanday qilib amalga oshirilishini ko'rsatadi. Ikkita shaxsning ijtimoiy statusi, bir-biri bilan munosabati, va yaqinlik darajasi ularning lisoniy va leksik birliklardan foydalanishida yo'l yo'riq vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Daminova O.B. "Ingliz va o'zbek matnlarda diskurs holati" magistrlik dissertatsiyasi Samarqand 2018.–B.
2. Fitriatuddiniyah. Tenor of analytical exposition essay at fourth semester iain syekh nurjati cirebon: a systemic functional linguistics perspective Cirebon -2016 –P.12
3. Fitriatuddiniyah. Tenor of analytical exposition essay at fourth semester iain syekh nurjati cirebon: a systemic functional linguistics perspective cirebon -2016 –P.12
4. Meiristiani, Noeris. (2011). Understanding Tenor In Spoken Texts In Year Xii English Textbook To Improve The Appropriacy Of The



Texts. Semarang State University-Indonesia

5. <https://eflfunc.wordpress.com/2013/04/10/tenor-of-discourse/>

6. U.Shekspir.Tanlangan asarlar.Toshkent.G`ofur G`ulom nomidagi Adabiyot va San`at nashriyoti.1985–B.85

Mayiliyeva G.B.

UrDU, Xorijiy filologiya fakulteti, mustaqil izlanuvchisi

mayliyevag@gmail.com

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SIFAT LEKSEMALARINI FARQLASHDA LISONIY DARAJALANISH QATORLARI TADQIQI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida graduonimiya hodisasining o'rganilishi, graduonimiya hodisasi mazmuni, tadqiqi haqida ma'lumot va fikrlar beriladi. Graduonimiya hodisasining o'zbek va ingliz tilshunosligida tutgan o'zni, tilshunoslikdagi vazifasi hamda ushbu hodisaga yondashuvlar yoritib beriladi. Tadqiqot ishimizning nazariy qismida aynan graduonimiya hodisasining o'rganilish darajasi beriladi.

Kalit so'zlar: graduonimiya, gradatsiya, sifat, sifatning funksional-semantik xususiyatlari, semantik guruhlar.

Dunyo tilshunosligida XIX asr oxiri XX asr o'rtalarida tilshunoslikni tasvirlashning empirik ifodasidan dialektik ya'ni mohiyatga asoslangan tomonga o'tishi kuzatilgan. Tilshunoslikning semantik tarkibi, uning keng qamrovliligi, pragmatik ma'noga ega ekanligi uning predmet va belgi o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashni taqozo qilgan. Jahon tilshunoslari tilning semantik sistemasini o'rganish jarayoni nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab kelishgan. Jahon tilshunosligida olam lisoniy manzarasining belgi-xususiyat tizimini tahlil qilish, madaniyatlararo



Erkayev E.T., Bobojonov B.A. MUSTAQIL ISHNI TASHKILLASHTIRISHDA MASHQLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	47
Gafurova R.N. THE CHANGING ROLE OF TEACHERS: THEIR INVOLVEMENT BOTH INSIDE AND OUTSIDE THE CONTEXT.....	52
Ibragimova Sh.T. ENHANCING ACADEMIC DISCOURSE: STRATEGIES FOR TEACHING SPECIALIZED VOCABULARY IN NON-LANGUAGE STUDIES UNIVERSITY COURSES.....	56
Karayeva D.X. THE EFFECTIVENESS OF TECHNOLOGIES ON TEACHING EFL LESSONS.....	62
Karimova Sh.T., Anafiyayev I. EFFECTIVE WAYS OF IMPROVING ORAL PROFICIENCY SKILLS OF THE ENGLISH LEARNERS.....	67
Keldiyarova M., Burieva N. EFFECTIVE ASSESSMENT STRATEGIES FOR ENHANCING TEACHING AND LEARNING.....	74
Латипов О.Ж. О СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДАХ ПРИ УСВОЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ.....	80
Matnazarova X. DISKURS TILSHUNOSLIGIDA TENORNING STATUS, MUNOSABAT VA TA'SIR KABI TURLARGA BO'LINISHINING TAHLILI.....	86
Mayiliyeva G.B. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SIFAT LEKSEMALARINI FARQLASHDA LISONIY DARAJALANISH QATORLARI TADQIQI.....	91
Mengliyeva S.S. INNOVATION METODLAR ORQALI XORIJIY TILLARNI O'QITISH.....	95
Mirzayeva G.S. LINGUOCULTUREME IN SDUDY OF NATIONAL AND CULTURAL WORDS.....	98
Муҳаммадаминов С.А. АБУ ҲАФС АН-НАСАФИЙНИНГ АРАБ ТИЛШУНОСЛИГИГА ОИД АСАРЛАРИ.....	105
Mukhtarova N.K. THE USE OF VIDEO MATERIALS TO INCREASE STUDENTS' COMMUNICATIVE SKILLS IN ENGLISH LESSONS.....	112
Murtazaeva A.B. NUTQ MADANIYATINING KOMMUNIKATIV TAMOYILLARI.....	119
Musayeva Sh.I. KURSANTLARNING MADANIYATLARARO MULOQOT	

